

KORRUPSIYA -TARAQQIYOTNING KUSHANDASI

Andijon mashinasozlik institute
“Transport muhandisligi” kafedrasida
 Dotsent: **Ikromov Nurillo Avazbekovich**
 Tel: +998914794646

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiya haqida tariximizga nazar soladigan bo'lsak, yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korrupsiya bizning kunlarga yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan o'arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo'lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Kalit so'zlar: *Korrupsiya, jamiyat, davlat, surushtiruv, jinoyatchi, adolatsizlik, daromad, jamoatchilik, huquq, idora, boshqarma, illati, muammo, yechim, taklif.*

Аннотация: В этой статье мы рассмотрим историю коррупции. В письменных источниках упоминается коррупция во времена Шумерского царства до нашей эры. Тот факт, что коррупция дошла до наших дней, показывает, что, как и другие пороки, ее невозможно полностью искоренить. Даже развитые западные страны не смогли полностью избавиться от коррупции. Однако предотвращение коррупции, угрожающей развитию общества, и борьба с ней всегда продолжались во всех странах Земли.

Ключевые слова: *Коррупция, общество, государство, дознание, преступник, несправедливость, доход, общественность, закон, должность, управление, порок, проблема, решение, предложение.*

Abstract: In this article, we will look at the history of corruption. Written sources mention corruption during the Sumerian kingdom before Christ. The fact that corruption has reached our days shows that, like other vices, it cannot be completely eradicated. Even the developed western countries could not completely get rid of corruption. However, the prevention of corruption, which threatens the development of society, and the fight against it, have always continued in all countries on Earth.

Key words: *Corruption, society, state, inquiry, criminal, injustice, revenue, public, law, office, administration, vice, problem, solution, proposal.*

Kirish. Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korrupsiya bizning kunlarga yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan o'arb

davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo‘lmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Korrupsiya masalasi dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan eng asosiy global muammolardan biridir. Bu muammo har qanday davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadigan, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladigan salbiy illatdir. Shuning uchun ham bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash masalasi xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy oldi.

Dunyoda korrupsiyaning turi ham, tavsifi ham juda ko‘p. Uning kelib chiqish sabablarini o‘rganish, unga qarshi kurashishning samarali yo‘llarini topish bo‘yicha olimlar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Bu borada turli ko‘rsatkich va raqamlar aks etgan jadvallar ham yaratilgan, o‘ziga xos reytinglar tuzilgan.


Bir so‘z bilan aytganda, korrupsiya so‘zi «sotish», «sotilish», degan ma’nolarni ham anglatar ekan. Rahbar yoki mas’ul kishi qanday qilib korrupsiyaga qo‘l uradi? Bunga qanday omillar sabab bo‘ladi? Bu savollarga javob har xil bo‘lishi mumkin. Lekin shunisi aniqki, sotadigan xam, sotiladigan xam, nafaqat bugunning, balki ertangi nurli kelajagimizning ham xiyonatkoridir [1-2].

Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usuli. Davlat va jamiyatda inson ongi, dunyoqarashi bilan bog‘liq muammolar tahlilidan kelib chiqsak, sobiq ittifoqdan meros qolgan korrupsiya illatiga qarshi kurashda hali ancha aziyat chekishga to‘g‘ri keladi. So‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan butun mamlakatda tom ma’noda korrupsiyaga qarshi urush e’lon qilindi. Shu sababli loqaydlik, befarqlik, ikkiyuzlamachilik, tovlamachilik, firibgarlik, urug‘-aymoqchilik, tanish-bilishchilik, poraxo‘rlik kabi illatlarning sodir etilishiga qarshi kurashda barchaning faolligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Mamlakatimizning kelajagini va obro‘-e’tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu kabi tahdidlarni esda tutmog‘i darkor. Halol mehnat qilish, o‘z bilimi, kuch-g‘ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo‘lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to‘la-to‘kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro, korrupsiya yo‘liga o‘z vaqtida zarur to‘siq qo‘yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini anglash qiyin emas [3-6].

Jamiyatda ustuvor soha — ta’lim tizimida tahsil oladigan o‘smirlar, yoshlar ongida tolerantlikni uyg‘otish muammosi oldimizda ko‘ndalang turibdi. “Jamiyatda poraxo‘rlik illatini yengib bo‘lmaydi”, degan fikr yoshlar ongida shakllanib qolgani eng katta kamchiligimiz. Bu borada o‘nglanish, siljish qilmasak, millatimiz obro‘sig

korrupsiya illati soya solib turaveradi. Toki, biz oilada, bog'chada, maktabda o'g'il-qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga tamagirlik, poraxo'rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanligi haqida ko'proq tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad-muddaoga erisha olishimiz qiyin. So'nggi yillarda Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan davlat xalqqa xizmat qilishi kerak, degan ulkan g'oya fuqarolik jamiyati institutlariga tizim va dasturlarni ishlab chiqish imkoniyatini bergan edi [7-9].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Korrupsiya rivojlanish «mashina»si g'ildiraklarini moylaydimi yoki loylaydimi? XX asrning ikkinchi yarmida kam rivojlangan davlatlarda korrupsiya jamiyatning rivojlanishi uchun yaxshi, degan fikr keng tarqalgan (Leff, 1964; Hantington, 1968; Lui, 1985). Chunki bu davlatlarda qonunlar to'g'ri ishlab chiqilmagan, mansabdor shaxslar lavozimiga tushunarsiz usullarda tayinlangan. Bunday holatda odamlarning biznesni rivojlantirish va sun'iy to'siqlarni bartaraf etish uchun pora berishdan boshqa iloji qolmaydi. Lekin XXI asrga kelib ko'pchilik olimlar korrupsiyaning foydalaridan ko'ra zararlari ko'pligini tan olishdi



1. Rasm. O'zbekistonning xalqaro korrupsiya reytinglaridagi holati

Odamlar ratsional qaror qabul qiladi, ya'ni har doim foyda va zararni o'lchab harakat qiladi, deb faraz qilaylik. Korrupsiyaning pora oluvchi uchun foydasi nima? Bu – xizmat vazifasidan olayotgan maoshi va pora miqdori. Korrupsiyaning pora oluvchi uchun zarari nima? Bu – qonuniy jazo va korrupsiya holatini biron-birov bilib qolish ehtimoli borligi [9-11].

Demak, korrupsiyani kamaytirish uchun undan foydani kamaytirib zararni ko'paytirish kerak. Buning uchun quyidagi ishlarni bajarish kifoya:


- qonuniy jazoni kuchaytirish va uning muqarrarligini ta'minlash;

- korrupsiya holatlari va keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash bo'yicha alohida tekshiruvlarni kuchaytirish;

- ishchi maoshini oshirish.

Birinchidan, qonuniy jazo va tekshiruvlarni kuchaytirishdan oldin, qonun ustuvorligini ta'minlash kerak bo'ladi. Oddiy savol: nega bizda yo'l-patrul xizmati xodimi (GAI) bor? Vazifasi nima? Yo'l qoidalariga amal qilinishini ta'minlash, to'g'rimi? Masalan, Yaponiyada YPX yo'q. Odamlar tabiiy ravishda yo'l qoidalariga amal qilib yashaydi. Bizda esa har bir svetofor oldida YPX xodimi, bunisi yetmagandek, har bir YPX xodimining ustiga yana bitta qo'riqchi – bodikamera. Bu nimadan dalolat qiladi? Bu jamiyatda qonunga amal qilish degan tushunchaning, amaliyotning yo'q bo'lib ketganini bildirmaydimi?

Ikkinchidan, davlat xizmatchilari maoshini oshirish masalasiga keladigan bo'lsak, buning o'zi yetarli bo'lmasligi mumkin. Negaki, bir paytning o'zida ularning obro' va mas'uliyatini ham oshirish shart va zarur.



2. Rasm. Xalqaro reytingda olingan ballar yillar kesimida

Albatta, aksincha davlatning aralashuvini cheklab tashlash kerak deydiganlar ham topiladi. Chunki bozor talab va taklif mexanizmining o'zi kishilar hayotini farovonlik cho'qqisiga chiqarishga xizmat qiladi degan tushuncha bor va bu qaysidir ma'noda to'g'ri. Lekin, buning uchun ba'zi shartlar bajarilishi kerak. Bunga o'xshagan davlat aralashuvi muhim bo'lgan sohalar bir nechta. Shu jihatdan davlatning ham jamiyat hayotida o'ziga xos o'rni bor.

Uchinchidan, korrupsiyani to'liq emas, qisman cheklab turish maqsadida davlat xizmatlar ko'rsatish tizimini raqamlashtirish kerak. Masalan, Singapurda aholining davlat ishchisi bilan yuzma-yuz ko'rishishi tanqid ostiga olinadi. Murojaatchining so'rovi onlayn tarzda amalga oshirilishi kerak [12].

Xulosa. Yangi tizimni o‘rgatish, ommalashtirish ancha qiyin, chunki odamlar istalmagan narsani qilmaydi. Shunga qaramay, ancha vaqt tejalishini hisobga olib Davlat xizmatlari agentligi tajribasidan keng foydalanib, ushbu taklifni jiddiy o‘rganish kerak, baribir urinib ko‘rgan ma’qul. Demak, biz ishni birinchi navbatda o‘zimizni va bolalarimizni to‘g‘ri tarbiyalash, qonunlarga amal qilib yashashni o‘rgatishdan boshlashimiz kerak.

Mamlakatimizda ham siyosiy, ham iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etish paytida korrupsiya jiddiy to‘siq bo‘layotgani jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Shu bois Yurtboshimiz boshlab bergan jamiyatni demokratlashtirish, modernizatsiyalash jarayonlari qiyinchilik bilan davom etmoqda. Iqtisodiyotning investitsiya kiritilgan, “pul ishlaydigan”, birmuncha “yog‘li” tarmoqlariga o‘rnashib olgan “korrupsiya halqasi” milliy taraqqiyotimizning dushmani, jamoat nazorati esa ularga qarshi kurashda ojizlik qilayotgani ham afsuski bor gap. Mamlakatda korrupsiya sxemalari, mehnat qilmasdan tezda boyib qolish mexanizmlari, ishlangan usullari “zanjiri” uzib tashlanmas ekan, davlatimizning har qanday siyosiy, iqtisodiy islohotini hayotga olib kirish, xalqni farovon qilish vazifasi qog‘ozda qolib ketaveradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Негматов С.С. и др. Исследование антифрикционно-виброзвукопоглощающих композиционных полимерных материалов и покрытий на их основе // *Universum: технические науки*. – 2021. – №. 8-1 (89). – С. 11-15.
2. Икромов, Н. А. "ўғли Холматов СУ Ҳайдовчиларнинг иш тажрибасини йўл транспорт ходисасига таъсирини ўрганиш." *Journal of new century innovations* 10.2 (2022): 11-18.
3. Ikromov N. A. et al. Shahar ko‘chalarida transport vositalarining harakat jadalligini o‘rganish // *Новости образования: исследование в XXI веке*. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 863-872.
4. Негматов, С. С., Жалилов, Ш. Н., Рахманов, Ш. В., Негматова, К. С., Абед, Н. С., & Икромов, Н. А. & Махаммаджонов, ХА (2022). *Исследование тепловой водостойкости и прочностных свойств композиционных полимер-полимерных связующих*. *Universum: технические науки*, (11-5 (104)), 47-53.
5. Ikromov N. Investigation of the effect of magnetic treatment of polymer coatings on their adhesive and physical and mechanical properties // *Машинасозлик илмий-техника журнали*. – 2022.
6. Ikromov N. Yengil avtomobillarga taksi saroyini loyihalsh // *Scienceweb academic papers collection*. – 2023.
7. Avazbekovich I. N. Avtomobillarga kunlik qarov va diagnostika ishlarini tashkillashtirish // *Новости образования: исследование в XXI веке*. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 112-116.

8. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 471. – С. 06015.

Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – Т. 1. – №. 14. – С. 10-14.

10. Икромов, Н. А. (2021). Исследования физико-механических свойств радиационно модифицированных эпоксидных композиций и покрытий на их основе. *Universum: технические науки: электрон. научн. журн*, 12, 93.

11. Anvarjonovich T. S. Avtotransport korxonalarida mavjud yordamchi ustaxonalar faoliyatini tashkil qilish va takomillashtirish //World scientific research journal. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 136-141

12. Темиров Ш. А. Проблемы и коммерциализация инноваций в России на современном этапе развития //Матрица научного познания. – 2019. – №. 6. – С. 184-192.